



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иктисодиёт - баркарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI XALQARO
STANDARTLAR ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI**

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА СУБЪЕКТОВ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ**

**ENHANCING THE EXPORT POTENTIAL OF BUSINESS ENTITIES BASED ON
INTERNATIONAL STANDARDS**

Oqboyev Alisher Rasuljanovich

Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.d. (DSc)

ORCID: 0009-0005-5272-0274

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish masalalari tadqiq etilgan. Jahon bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida mahsulot va xizmatlar sifati, xavfsizligi hamda muvofiqligini ta'minlash eksport faoliyati samaradorligining muhim omili ekani asoslab berilgan. Tadqiqotda xalqaro standartlarni joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda savdo to'siqlarini kamaytirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, eksport faoliyatida ISO standartlari, sertifikatlashtirish tizimi va sifat menejmenti mexanizmlarining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik subyektlari, eksport salohiyati, xalqaro standartlar, ISO standartlari, sifat menejmenti tizimi, sertifikatlashtirish, raqobatbardoshlik, tashqi bozorlar, eksport faoliyati, savdo to'siqlari, diversifikatsiya, mahsulot sifati, xalqaro bozor integratsiyasi, innovatsion yondashuvlar, iqtisodiy samaradorlik.

В данной статье исследуются вопросы повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства на основе международных стандартов. В условиях усиления глобальной конкуренции обосновывается, что обеспечение качества, безопасности и соответствия продукции и услуг является ключевым фактором эффективности экспортной деятельности. В работе раскрываются возможности расширения выхода субъектов предпринимательства на внешние рынки, повышения конкурентоспособности продукции, диверсификации экспортной географии и снижения торговых барьеров за счет внедрения международных стандартов. Также проведён научный анализ роли стандартов ISO, системы сертификации и механизмов менеджмента качества в развитии экспортной деятельности. По результатам исследования разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на развитие экспортного потенциала субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, экспортный потенциал, международные стандарты, стандарты ISO, система менеджмента качества, сертификация, конкурентоспособность, внешние рынки, экспортная деятельность, торговые барьеры, диверсификация, качество продукции, интеграция в мировой рынок, инновационные подходы, экономическая эффективность.

This article examines the issues of enhancing the export potential of business entities based on international standards. In the context of increasing global competition, it is substantiated that ensuring the quality, safety, and compliance of products and services is a key factor in improving export performance. The study highlights ways to expand access to foreign markets, increase product

competitiveness, diversify export geography, and reduce trade barriers through the implementation of international standards. In addition, the role of ISO standards, certification systems, and quality management mechanisms in the development of export activities is scientifically analyzed. Based on the research findings, practical recommendations aimed at improving the export potential of business entities have been developed.

Key words: business entities, export potential, international standards, ISO standards, quality management system, certification, competitiveness, foreign markets, export activity, trade barriers, diversification, product quality, global market integration, innovative approaches, economic efficiency.

Jahon xo‘jaligi tizimida global raqobatning kuchayishi, tashqi bozorlarda mahsulot sifatiga qo‘yiladigan talablarning tobora ortib borishi va savdo munosabatlarida texnik to‘siqlarning kengayishi tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda tashqi bozorga chiqish faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki mahsulot turlarini ko‘paytirish bilan emas, balki xalqaro sifat standartlariga muvofiqlikni ta‘minlash, sertifikatlashtirish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish va eksport faoliyatini institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bilan ham bevosita bog‘liq.

Ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ISO, HACCP, GlobalG.A.P., CE kabi xalqaro talablarga mos bo‘lishi ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro sifat standartlarini joriy etish, milliy standartlarni xalqaro me‘yorlar bilan uyg‘unlashtirish, muvofiqlikni baholash infratuzilmasini rivojlantirish hamda tadbirkorlarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi[1].


Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini oshirishda xalqaro sifat standartlarining ahamiyati, ushbu jarayonga ko‘maklashuvchi idora va tashkilotlar faoliyati, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar, shuningdek, muvofiqlikni baholash yo‘nalishida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini xalqaro sifat standartlari asosida oshirish ko‘p bosqichli va o‘zaro bog‘liq institutsional-iqtisodiy tizimni talab qiladi. Bu jarayonda, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari va qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlarning o‘rni kattadir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Savdoni rivojlantirish kompaniyasi hamda Savdo-sanoat palatasi kabi tuzilmalar tadbirkorlik subyektlarini tashqi bozorlarga olib chiqishda muhim institutsional tayanch vazifasini bajaradi[2]. Ushbu tashkilotlar tomonidan me‘yoriy-huquqiy muhitni shakllantirish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo‘yicha maslahatlar berish, eksportyorlarga axborot yetkazish hamda manzilli qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilishi zarur.

1-rasmda aks ettirilganidek, eksport salohiyatini oshirish mexanizmining birinchi muhim tarkibiy qismi tashkiliy mexanizm hisoblanadi. Uning asosiy mazmuni tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish jarayonlarini tizimli tashkil etishdan iborat. Bu yo‘nalishda, avvalo, respublikada va xorijda sifat standartlarini joriy etish hamda sertifikatlashtirishning me‘yoriy-huquqiy asosini mustahkamlash zarur. Chunki huquqiy baza aniq va barqaror bo‘lmasa, tadbirkorlik subyektlari standartlarni joriy etishda yetarli darajada faol ishtirok etmaydi.

Shuningdek, milliy standartlarni xalqaro me‘yorlar bilan uyg‘unlashtirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon milliy iqtisodiyotni jahon xo‘jalik tizimiga integratsiya qilish, mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlarda tan olinish darajasini oshirish va eksportda uchraydigan texnik to‘siqlarni qisqartirish imkonini beradi. Milliy sertifikatlarni xalqaro darajada yoki kamida ikki tomonlama tan olishga erishish esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun tashqi bozorlarga kirish xarajatlarini kamaytiradi.

Tashkiliy mexanizmning yana bir muhim jihati — xalqaro sifat standartlarini joriy qilish bo‘yicha konsultativ xizmatlar ko‘rsatish va tadbirkorlarni o‘qitish tizimini rivojlantirishdir.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab tadbirkorlik subyektlari standartlarning mazmuni, ularni joriy etish tartibi, audit va sertifikatlashtirish bosqichlari haqida yetarlicha amaliy bilimga ega emas.



1-rasm. Xalqaro standartlar asosida tadbirkorlik subyektlarining eksportini oshirishning takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Shu bois, sohalar va hududlar ixtisoslashuvidan kelib chiqib maqsadli o‘quv dasturlari, amaliy treninglar va konsalting xizmatlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada hududlar ixtisoslashuv darajasini hisobga olgan holda zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish va ularni xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish ham dolzarb vazifadir. Chunki mahsulot sifati va xavfsizligini baholash bo‘yicha mahalliy infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmagani ko‘pincha eksport jarayonini sekinlashtiradi[3]. Agar tadbirkorlar sertifikatlashtirish va sinov jarayonlarini mamlakat ichida, xalqaro talablarga javob beradigan laboratoriyalarda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu ularning vaqt va xarajatlarini keskin kamaytiradi.

Eksport salohiyatini oshirish tizimida ikkinchi muhim tarkibiy qism iqtisodiy mexanizmdir. Xalqaro sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish jarayoni odatda katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Mazkur xarajatlar ishlab chiqarish jarayonlarini qayta tashkil etish, texnologik modernizatsiya, xodimlarni o‘qitish, auditdan o‘tish, laboratoriya sinovlari va sertifikat olish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash eksport salohiyatini rivojlantirishning hal qiluvchi omili hisoblanadi.

Bu yo‘nalishda xalqaro sifat standartlarini joriy etgan va tegishli sertifikatlarni olgan tadbirkorlik subyektlariga grantlar berish, imtiyozli kreditlash tizimini joriy etish, soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, GSP+ tizimi doirasida bojsiz va pasaytirilgan boj to‘lovlari asosida eksportni rag‘batlantirish ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi narx raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarishda logistika xarajatlari, ijara xarajatlari, mahsulot namunalarini yetkazish, brendni tanitish va sotishga oid xarajatlarni qisman qoplash ham tadbirkorlik subyektlari faolligini oshiradi. Eksport faoliyatida moliyaviy tavakkalchiliklar yuqori bo‘lgani sababli sug‘urta xizmatlaridan foydalanishda sug‘urta mukofotlarini subsidiyalash mexanizmini ishlab chiqish ham ahamiyatlidir. Bundan tashqari, jahon brendlarini jalb etish va mahalliy brendlarni ilgari surishni moliyaviy rag‘batlantirish mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlarda tanilishiga xizmat qiladi[4].

Tizimning uchinchi muhim yo‘nalishi muvofiqlikni baholash va tashqi bozor talablarini o‘rganish mexanizmi bilan bog‘liq. Eksport faoliyati samaradorligini ta‘minlash uchun xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo‘yilgan majburiy va qo‘shimcha talablarni muntazam o‘rganish, tahlil qilish va tadbirkorlarga yetkazish tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Bu borada Savdo-sanoat palatasi tizimida tadbirkorlarning so‘roviga asosan xorijiy bozorlardagi texnik, sanitariya, fitosanitariya, ekologik va markirovka talablari bo‘yicha axborot taqdim etuvchi maxsus bo‘linmalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, tadbirkorlarga xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha ma‘lumot taqdim etish tartibini ishlab chiqish, eksportchi korxonalarda sifat menejmenti tizimining xalqaro standartlarini joriy etish choralari ko‘rish zarur. Bunday yondashuv mahsulotlarning sifat jihatdan raqobatbardoshligini oshiradi, ularning qo‘shilgan qiymatini ko‘paytirishga xizmat qiladi va natijada eksport salohiyatini yuksaltirishga olib keladi[5].

Umuman olganda, xalqaro sifat standartlarini joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish faqat texnik yoki sertifikatlashtirish masalasi emas, balki davlat siyosati, infratuzilma, axborot ta‘minoti, moliyaviy rag‘batlar va institutsional hamkorlikni qamrab oluvchi kompleks mexanizm hisoblanadi. Mazkur mexanizm to‘liq ishlagan taqdirda tadbirkorlik subyektlari tashqi bozorlarga samaraliroq chiqishi, mahsulot sifatini barqaror ta‘minlashi va eksport hajmini izchil oshirishi mumkin[6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda xalqaro sifat standartlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, mahsulot sifati va xavfsizligini xalqaro talablar asosida ta‘minlash, sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish, muvofiqlikni baholash infratuzilmasini rivojlantirish hamda tadbirkorlarni tashkiliy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash eksport samaradorligini oshirishning muhim shartlaridir. Shuningdek, tashqi bozorlarda amal qiladigan majburiy va qo‘shimcha talablar haqida tezkor axborot olish imkoniyati mahalliy tadbirkorlarning eksport imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

xalqaro standartlarni joriy etishning me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish va milliy standartlarni xalqaro me’yorlar bilan bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq;

tadbirkorlar uchun standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo‘yicha doimiy konsalting va o‘quv tizimini tashkil etish, ayniqsa eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi subyektlarga manzilli amaliy yordam ko‘rsatish lozim;

hududlar ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda xalqaro akkreditatsiyaga ega sinov laboratoriyalari tarmog‘ini kengaytirish zarur;

xalqaro sifat sertifikatlarini olgan tadbirkorlik subyektlariga grant, subsidiya, imtiyozli kredit va soliq-bojxona yengilliklari berish mexanizmlarini kuchaytirish kerak;

savdo-sanoat palatasi va boshqa mas’ul tuzilmalar negizida xorijiy bozorlardagi mahsulot talablari bo‘yicha axborot-maslahat markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq;

eksportchi korxonalarda sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni davlat tomonidan rag‘batlantirish orqali mahsulotlarning raqobatbardoshligi va qo‘shilgan qiymatini oshirish mumkin.

Shu tariqa, xalqaro sifat standartlariga asoslangan yondashuv tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi, mahsulot sifati va ishonchligini oshiradi, natijada mamlakat eksport salohiyatining barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish masalalari (Monografiya) //ISBN:978-9910-662-40-9// “Mashrab” nashriyoti. –Namangan, 2024. — 162 b.
2. Oqboyev A.R. Xalqaro standartlarni joriy etishning baholash mezonini va uning tadbirkorlik subyektlariga ta’siri // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – Toshkent, 2025. –№2. – B. 993-996.
3. Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasi // Muhandislik va iqtisodiyot. –Toshkent, 2025. –№1. – B. 135-139. (OAK rayosatining 28.08.2024-yildagi 360/5-son qarori).
4. Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatida xalqaro standartlarini joriy etishning xorij tajribasi //Innovations in Science and Technologies” ilmiy-elektron jurnali. –Toshkent, 2025. –№2. – B. 145-153.
5. Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirish strategiyasi // “Sun’iy intellekt nazariyasi va amaliyoti: tajribalar, muammolar va istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. 21-22-may 2024-yil. –B.192-196.
6. Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.//“Biznes va boshqaruv sohalarida matematik modellashtirishning zamonaviy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman. University of Business and Science. 15-may 2024-yil. –B.299-304.